

## MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISHDA METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani*

*1-IDUM olivy toifali tarix fani o'qituvchisi*

*Abdiraxmanova Aysafar Sa'dullayevna*

**Annatatsiya:** Mazkur maqolada ta'lif tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg'or tajribalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z:** maktab, o'quvchi, tarix, qiziqarli o'yinli, mavzuga zamin, xulosa-daraxt hosilida.

O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bu e'tibor natijasida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar orqali tarixiy hodisalar, shaxslar va jarayonlar bilan bog'liq ko'plab savollarga javob izlangan. Ushbu jarayon inson o'tmishda nima sodir bo'lganligini yozishni boshlashi bilan va tarixshunoslikni paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi. Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'لامи, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi. Tahlillar natijasida tarix ilmini o'tmishdan to hozirgi kungacha juda ko'p turli maqsadlarda ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Tarix ayniqsa o'tmishga qiziqish, o'yin-kulgi, axloqiy va diniy ta'lif, siyosiy va mafkuraviy qiziqishlarni oshirish uchun ishlatilgan. Tarix qiziqarli soha sifatida ko'rilgan va

odamlarning e'tiborini jalb qilish uchun ishlatalgan. Ayniqsa, tarixiy suhbatlar har bir davrda odamlarning e'tiborini tortuvchi targ'ibot vositasi sifatida foydalanilgan.

Maktabda tarix talimi taraqqiyotining turli bosqichlarida o'qitish usullaridan turlicha foydalanib kelindi. 20 yillarda tarixni o'rganishning asosiy usuli-o'quvchilarning tarixni materiallar ustida olib boradigan mustaqil ishlaridan iborat bo'lsa, 30-yillarda esa, o'qituvchining jonli so'zi o'quvchilar bilimining yagona manbai va asosiy o'qitish usuli bo'lib xizmat qildi. O'qituvchilarning asosiy etibori material tanglash va uni baen qilishga qaratiladi. Shuningdek, 30- yillarda materialni bayon qilish, suhbat usuli hamda o'quvchilardan so'rash usullari ishlab chiqilib, oynoma sahifalarida e'lon qilindi. Bernadskiyning tarix o'qitish usullarini 1-marta tadqiq etgan muhim qo'llanmasi ham nashr etildi. 40-50 yillarda A.M. Strojevning oliv o'quv yurtlari tarix fakultetlarining talabalari uchun mo'ljallangan "Tarix o'qitish metodikasi, programmasi" va boshqa ilmiy-metodik maqolalari shu yangi vazifalar asosida yozilgan bo'lib, tarixiy fikrlar taraqqiyotida yangi, muhim yo'nalishni boshlab berdi. A.I. Strajevning tarix o'qitish usullari asosida, N.V.Andreevska y bilan V.N.Bernadskiy o'qituvchilar dasturi tinglovchilari uchun "Yetti yillik maktablarda tarix o'qitish metodikasi" darsligini yaratdilar. Bu yillardagi tarixiy uslubiy fikrlar taraqqiyotining muhim xususiyati, avvalo, ilmiy tadqiqot ishlarining kuchayganligi, uning keng ko'lamda olib borilganligi bilan xarakterlanadi. Ularda psixologiya fani yutuqlariga asoslanishga jiddiy e'tibor berildi.

1956 yildan etiboran, tarix fanini, maktab tarix talimi mazmunini shaxsga sig'inish va uning oqibatlaridan tozalashga kirishildi. Jumhuriyatlar va o'lkalar tarixini o'rganish, darsliklar yaratishga kirishildi. Lekin, tarixiy haqiqat to mustaqilligimizga erishgunga qadar cheklangan holda qoldi. 60-yillarda tarix o'qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Uslubi Strajev A. Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodikasi va vositalari tarix fanining malum talim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi"-deydi. Biroq u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini urganish metodidan iborat qilib qo'yib misolda noaniqlikka yo'l qo'ydi. U qo'yidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi.

1. tarixiy faktlarni urganish metodlari.
2. xronologiyani o'rganish metodlari

3. mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari
4. asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari
5. sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari
6. tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari

Ammo bu tadqiqot ishlarining ko'pchiligi o'qituvchinig materialni bayon qilib berishi, evristik suhbat, so'rash va darsda o'quv qo'llanmalaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'quvchilarining mustaqil fikrlash, ijodiy ishslash faoliyatini uysushtirish, o'nda o'qutuvchining rah'barligiga kam e'tibor berilgan edi. Bu ham milliy ong siyosiy madaniyat rivojlanishidan manfaatdor bo'limgan mafkuraviy hukmdorlik talablariga moslashishning natijasi edi. Tarix o'qitish-o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Uslubchi V.G.Kartsev metodlari sistemasiga o'quv xarakteriga ega bo'lgan belgilar ("Bayon qilish metodi", "so'rash metodi") va umumiylididaktik vazifalar ("materialni o'rganish metodi", "mustahkamlash metodi", "bilimni tekshirish metodi va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. V.G.Kartsev: "O'quvchilarda tasavvur va tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari haqidagi masala metodikaning markaziy masalasi bo'lishi kerak", -deb hisoblaydi. O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oralig'ini qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqgan holda tarix darslarida qo'llaniladigan o'yinlar hamda interfaol usullardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Ma'lum bir qoidalarga, tartibga amal qilishni, o'zaro hurmat ko'rsatishni eng asosiysi dars jarayonida interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan o'yinlar o'quvchi-talabalarning o'z menini shakllanishida hamda samarali faoliyatidan ko'nikma va mammunlik, vaqtning mazmunli o'tganligidan, keyingi dars jarayoniga alohida tayyorgarlik bilan kelishini ta'minlaydi. O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarda hech bo'limganda o'yin faoliyatiga ishtirok etish uchun ham dars mashg'ulotlariga kelishini, ma'lum bir jamoa fikrlariga qo'shilib ularni eshitib, asta-sekin jamoa manfaatlariga qarab rivojlanishni boshlaydi. Bu o'z navbatida ta'limdagi yuqori samaradorlikka erishishga va

jamiyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shish maqsadida biz pedogollar uchun eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sadiev A. *Maktabda tarix o'qitish metodikasi.* T., 1988, 138-146 betlar.
2. Sadiev A. *O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish.* T., 1993., 126-130 betlar
3. I Lerner İ.Ya. *O'qitish metodlarining didaktik asoslari.* M., 19i1
4. "afforov Ya.X., "afforova M. *O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.* T., 1996
5. Tolipov O'.Q.Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).* - T.: "Fan" nashriyoti, 2006y.
6. F.A.Normatova, Yoshlarda tarixiy ongni shakllantirishning dolzARB masalalari. "Texnika va texnologiya fanlar sohalarining innovatsion masalalari" mavzusidagi xalqaro-ilmiy texnik anjuman matereallari konferensiya. Termiz 2020 yil.